

## JANRLAR BIBLIOGRAFIYASI

Malika Isayevna Matmuradova

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Kutubxona –axborot faoliyati”

kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ma’lum bir janr bo‘yicha tuzilgan bibliografik ko‘rsatkichlar tuzilishi, dastlab roman janri bo‘yicha tuzilgani, folklorshunoslik, o‘zbek qissalari bo‘yicha tuzilgan ko‘rsatkilar tahlili ularda, materiallaring joylanishi, ahamiyati, ilmiy tadqiqot ishlarinig olib borayotgan tadqiqotchilar uchun qo‘layligi haqidagi ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** janr, o‘zbek romanlar, folklorshunoslik, xronologik, yordamchi apparalar, tizim, bibliografik qo‘llanmalar.

**Annotation.** This article analyzes the structure of bibliographic indexes created based on specific literary genres. It begins with those compiled on the novel genre and proceeds to examine bibliographic indexes related to folklore studies and Uzbek short stories. The article discusses how materials are arranged, their significance, and the convenience of these indexes for researchers conducting scientific studies.

**Keywords:** genre, Uzbek novels, folklore studies, chronological, auxiliary apparatus, system, bibliographic guides.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”, “Adabiyotga e’tibor-ma’naviyatga, kelajakka e’tibor” asarlarida ta’kidlanganidek, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish, yosh avlodni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishda, jamiyat va kishilarning kundalik ma’naviy hayotda badiiy adabiyotning o‘z o‘rni, ta’sir va ahamiyati g‘oyat beqiyosdir deyu ta’rif bergenlar.

Davrlar osha olmani badiiy idrok etish uslublari yangilanishi, yondashuvlar o‘zgarishi mumkin, lekin adabiyotning asl mavzusi hech qachon o‘zgarmaydi. Adabiyot hayotning, inson tabiatini, turmushi, orzu umidlarining o‘ziga xos ifodasi

, odamlarni o‘z ortidan ergashtiruvchi katta ijtimoiy kuch sifatida ularni ma’naviy barkamollik, ezgu maqsadlar sari da’vat etaveradi.

Istiqlol davrida tug‘ilgan, tafakkur tomirlari dunyoni o‘ziga qaratgan boy ma’naviy merosimizga tutash, erkin fikrli, o‘zligini anglash, keng ma’noda, qaramlik psixologiyasidan butunlay ozod yosh avlod adabiyot maydoniga qadam qo‘ymoqda. Ular orasida chinakam iste’dod sohiblarini tanlay bilish, ularni qo’llab –quvvatlash, tabiiyki, adabiy jamoatchilik zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Adabiyotga e’tibor-ma’naviyatga, kelajakk e’tibor” risolasida bu muhim masalaga alohida urg‘u bergen: “Ilgari bildirilgan bir fikrimni alohida ta’kidlamoqchiman: agar biz O‘zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug‘ kelajagini ulug‘lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo‘lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarini, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak” deb ta’rif berganlar.

Darhaqiqat, adabiyot butun jamiyatning, mumtoz namunalari misolida butun insoniyatning ma’naviy mulkidir. Adabiyoti taraqqiy topgan har bir millat erishgan yutuqlari butun jahon miqyosida ona-Vatanni va elu yurtini sharaflaydi.

Shoir va yozuvchilar tomonidan yaratilgan badiiy nashrlarning xillari va turlari xilma-xildir. Yaratilgan badiiy adabiyotlar janr xususiyatiga ko‘ra ham xilma-xildir.

Janr (lotincha genus-jins, tur)-san’atning barcha turlarida tarixan tarkib topgan ichki bo‘linish. Adabiyotda adabiy jinsga kiruvchi asarlarning ma’lum xususiyatlari bilan birlashtiruvchi guruh nomi. Badiiy asarlar 3ta katta turga bo‘linadi. 1. Epik asarlar. 2. Lirik asarlar. 3. Dramatik asarlar. Ushbu uch turdag‘i badiiy asarlar hayotiy qamrovi, uning aks ettirishining shakl va ustuvorlari jihatidan yana ham kichik xillarga bo‘linadi. Mana shu xillar adabiyotshunoslikda janr deb yuritiladi.

Yaratilgan, to‘plangan, tuzilgan qator badiiy nashrlarning har bir janri bo‘yicha minglab axborotlar mavjud. Mavjud janlar bo‘yicha manbalarni to‘plib, ko‘rsatkich shakliga keltirish, shuningdek, kitob ichi va oxirida adabiyotlar ro‘yxatini berish, respublikamizda XX asr 60-yillarining oxiriga to‘g‘ri keladi. Jumladan, birinchi marta

adabiyotshunos S. Mirvaliyevning “O‘zbek romani” monografiyasida (1969) 1908-168 yillarda chiqqan 59 nomidagi o‘zbek romanlarining ro‘yxati berilgan. Manbalar xronologik tartibida joylashtirilgan.

A.Rashidovning “O‘zbek qissalarida mehnati tasviri” (1980) monografiyasida (1915-1965) 124 nomda alohida nashr etilgan o‘zbek qissalarining xronologik ro‘yxati berilgan.

Janrlar bibliografiyasi XX asrning 80-yillarida shakllana boshlandi.

Jumladan, ”Библиографический указатель по фольклору Узбекистана, Сказки Узбекистана” Т.1. ko‘rsatkichining birinchi tomi 1981 yilda Samarqand Davlat Universiteti nashriyotida nashrdan chiqqan 1-chi bibliografik nashrdir. Unda 231 ta manbadan olingan 3500 ertak aks ettirilgan.

Ko‘rsatkichda dastlab o‘zbek tilidagi to‘plamlarda, darsliklar, jurnallarda va gazetalarda chop etilgan manbalar joylashtirilgan. Har bir berilgan manbada ertaklar soni ko‘rsatilgan, tarjima tili ham berilgan.

Rus tilida nashr etilgan manbalar alohida joylashtirilgan. Materiallar alifbo tartibda berilgan. Ko‘rsatikchda nashr qilingan tillar: o‘zbek, rus, qardosh xalqlar, xorijiy tillardagi nomlari ko‘rsatkich bilan ta’milangan. Bu har bir ertakni qaysi tildan tarjima etilgani haqida ma’lumotni beradi.

“Библиографический указатель по фольклору Узбекистана. Сказки Узбекистана” Т.2. ko‘rsatkichning ikkinchi tomi 1983 yilda nashr etilgan.

Ko‘rsatkichning bu tomi 2 qismdan iborat. Birinchi qismida o‘zbek va rus tilida nashr etilgan 291 ta ertaklarning bibliografik tavsifi berilgan. Ko‘rsatkichning 2 qismida ertaklar nazariyasiga oid 111 ta manba aks ettirilgan.

Ko‘rsatkichda manbalarni joylashtirishda bibliografik tavsiflarda xatolar mavjud.

1986 yilda “O‘zbek xalq dostonlari katalogi” nashrdan chiqdi. Katalogni Abbas Tursunqulov va Shomirza Turdimovlar tuzganlar. Oldingi H. S. Sulaymonov nomidagi qo‘lyozmalar institutining folklor fondida saqlanayotgan 189 ta dostonlar va dostonlardan parchalarning bibliografik tavsifi berilgan. Katalogda dastlab tarixiy

dostonlari haqida ma'lumotlar, shuninigdek qahramonlik dostonlari, kitobiy dostonlar, jangnoma dostonlari, romantik dostonlar berilgan.

Katalog folklor mutaxassislariga va keng ilmiy jamoatchilikka mo'ljallangan. Unda instituti folklor fondida mavjud bo'lgan dostonlar haqida dastlabki ilmiy ma'lumotlar berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Asosiy kutubxonasi bibliografi S. Jo'rayeva tomonidan tuzilgan " asr o'zbek qissachiligining taraqqiyoti" (bibliografik ko'rsatkich) 2000 yilda chop etilgan. Badiiy adabiyotda qissa janri alohida o'rin tutadi. Mazkur bibliografik ko'rsatkichda XX asr ikkinchi yarmi o'zbek qissachiligining paydo bo'lishidan tortib, yangilanish tamoyillarining ijodiy jarayonlarini o'zida aks ettiradi va o'zbek qissalarining yaratilish davri haqida ma'lumot beriladi. Ushbu ko'rsatkichda 1951 yildan 2000 yilgacha chop etilgan alohida nashr qilingan o'zbek qissalari 554 ta manbara bibliografik tavsif berilgan. Ko'rsatkichda materiallar xronologik tartibda joylashtirilgan.Biroq ko'rsatkich yordamchi apparatlar bilan ta'minlanmagan.

Mutaqillik yillarida adabiyotshunos olim S. Mirzayevning "Hayot va adabiyot" (Ilmiy asarlar, publisistik maqolalar) kitobi (2001) nashr qilindi.

Kitobda mustaqillik davridagi o'zbek adabiyoti va uning asosiy xususiyatlari o'zbek romanchiligining shakllanish yo'llari, rivojlanish bosqichlari keng tahlil etilgan.

Shunindek, kitobda 1908-1998 yillar oraliq'ida chop etilgan 219 nomdagagi o'zbek romanlarining xronologik ro'yxati berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti xodimi B.Nurmurodova tomonidan tayyorlangan "Folklorga oid maqolalar bibliografiyası" ("O'zbek tili va adabiyoti" jurnali bo'yicha) ko'rsakich "Fan" nashriyotida 2008 yilda 100 nusxada nashr etilgan.

"O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida folklorshunoslikning barcha masalalari-folklorshunoslik tarixi, xalq og'zaki badiiy ijodiyotining o'ziga xos tabiat, folklorlar janrlari, folklorda variant va versiya, epik syujetlar genezisi, marosim folklori, o'zbek

xalq nasri yuzasidan chuqur ilmiy umumlashmalarga boy maqola va ilmiy axborot bosilgan. B. Nurmurodova ushbu ishida “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida 1958 yildan 2007 yillarda chop etilgan 671 ta folklorga oid hujjatlarga bibliografik tavsif bergen va sistemalashtirgan. Ko‘rsatkich yordamchi appratlar bilan ta’minlangan. Ko‘rsatkichdagi materiallar xronologik tartibda joylashtirilgan.

Respublikamizda qator yozuvchi va shorilarimizga bag‘ishlab biobibliografiyalar tuzilgan. Bibliografiyalarda shaxsning asarlari janrlar bo‘yicha, ya’ni, poeziya, proza, dramaturgiya asarlari alohida berilgan.

Shuningdek, hozirgi kunda shoir va yozuvchilarning to‘liq matnli ma’lumotlar bazasi, elektron kutubxonalari yaratilgan. Elektron katalogi yordamida shoir va yozuvchining asarlari bibliografik yozuvlarida bibliografik tavsifini barcha elementlari yordamida bajarish mumkin bo‘lgan qidirish imkoniyatlari yaratilgan. Ayrim yozuvchi va shoirlarning bibliografiyalarni elektron shakllari yaratilgan.

Hozirgi kunda janrlar bo‘yicha bibliografik qo‘llanmalar yaratish imkoniyatlari yetarlidir. Bunday bibliografik qo‘llanmalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan xodimlarga va aynan ma’lum bir janr bo‘yicha kitoblarni sevib o‘qiydigan kitobxonlar uchun ham katta egadir. Ma’lum bir janlar bo‘yicha tuziladigan bibliografik qo‘llanmalar tuzilib nashrdan chiqsan O‘zbekiston bibliografiyasi tizimida o‘zining salmoqli o‘rni ekanligi ko‘rsatadi.

### Foydalaniłgan adabiyotlar

- 1.Каримов, И.А. Адабиётга эътибор-маънавиятга, келажакка эътибор / И. А.Каримов.–Тошкент: Ўзбекистон, 2009.–38 б.
- 2.Каримов, И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч / И.А.Каримов.–Тошкент: Маънавият,2008.–173 б.

**3.** Матмурадова, М.И. Ўзбекистонда жанрлар библиографияси // Ахборот-кутубхона ресурсларидан фан, таълим, маданият ва бизнес соналарида фойдаланиш = Информационно-библиотечные ресурсы в науке, образовании, культуре и бизнесе=Information and library resources in science, culture and business VI – Xalqaro konferensiya materiallari / М.И. Матмурадова.–Тошкент:

Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010.– Б. 359–362.

4. Нурмуротова, Б.Фольклорга оид мақолалар библиографияси (“Ўзбек тили ва адабиёти” журнали бўйича) / Б. Нурмуродова; масъул муҳаррир М. Жўраев.– Тошкент: Фан,2008.–92 б.
- 5.ХХ аср ўзбек қиссачилигининг тараққиёти (библиографик кўрсаткич) / тузувчи С.Жўраева; библиограф-муҳаррир С.Н.Акрамова ; масъул муҳаррир лар: Ш.Н. Нуритдинов, М.Р.Хасанова.–Тошкент,2000.–48 б.